

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA KREATIV FIKRLASH TUSHINCHASI

Latipova Gavhar Shavkatovna

Bosh ilmiy metodik markaz tayanch doktoranti (PhD)

Anotatsiya. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so‘nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o‘zlashtirishda shaxsiy rivojlanish muhim jarayon hisoblanadi. Natijada, o‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini takomillashtiradilar, shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.

Kalit so‘zlar: pedagog, kreativ salohiyat, malaka oshirish tizimi, pedagogik hamkorlik, refleksiya, muloqot uslubi, shaxsiy-ijodiy malaka oshirish, tinglovchilar.

Abstract. Personal development is an important process in regularly mastering the theoretical and practical foundations of organizing and managing the educational process based on the latest modern methods and forms typical of world standards. As a result, teachers improve their professional skills, personal they master the forms, methods and tools of creative skill improvement.

Key words: pedagogue, creative potential, training system, pedagogical cooperation, reflection, communication style, personal-creative training, listeners.

Pedagogning kasbga doir kreativ salohiyati ta’lim lug‘atida berilgan ta’rifga ko‘ra, kasbiy malakalar mahorat-professional faoliyatning muayyan shakllarida o‘zini namoyon eta oladigan va professional harakatlanishni boshqaruvchi, ta’limdagi tub o‘zgarishlarga moslasha oladigan yuqori malakali xodimning sifati tushuniladi. Tinglovchilarining kasbiy malakasining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: ijtimoiy-huquqiy malakalar, ya’ni xodimlar o‘zaro munosabatlar sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, shuningdek, professional muloqot uslubi; doimiy kasbiy o‘sish va rivojlanish uchun shaxsiy malaka; maxsus malaka oshirishga tayyor o‘z kasbiy faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirish; mutaxassislik bo‘yicha o‘z bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish qobiliyati.

Malaka oshirish tizimi tinglovchilarining pedagogik faoliyati samarali bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar tizimi bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko‘ra bilish, diqqatni taqsimlay olish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, talabalarini bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Bu maqsad o‘qituvchilarning quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

- ✓ o‘qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar;
- ✓ pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachilik mahorati, ta’lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi bilimlar tizimini egallaydilar;
- ✓ o‘qituvchilar milliy urf-odat va an‘analaramizda va O‘rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallahga nisbatan o‘zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar;

- ✓ egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida har bir bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi;
- ✓ o'quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so'nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o'zlashtiradilar;
- ✓ o'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar;
- ✓ tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to'g'risida uzlucksiz ma'lumotlarni o'r ganib boradilar;
- ✓ zamonaviy axborot texnologiyalari tizimidan erkin foydalanish asosida o'z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Malaka oshirish tizimi tinglovchilarining shaxsiy-kreativ salohiyati - mutaxassisning sifati, uning jismoniy, aqliy va ma'naviy ehtiyojlari, ma'lum bir kasbning talablarini, ixtisoslik mutaxassisligini, malaka standartlarini, egallab turgan yoki bajariladigan xizmat mavqeini ta'minlaydi. Talabalarning pedagogik faoliyatga kasbiy malakalarini rivojlantirish masalalarini ochishda olimlar - o'qituvchilar shaxsiy rivojlanish darajasini aniqlash uchun bir qancha mezonlarni aniqlaydilar.

Xususan, tadqiqotlarda, o'qituvchilar tayyorlaydigan universitet bitiruvchilarining maktabda ishlashga tayyorlik darajasining muhim mezoni sifatida, ularning nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha o'quv fanlarini o'qitish, balki pedagogik ishga shaxsiy va ijtimoiy munosabatlari ko'rsatiladi, balki talabalar bilan tizimli tarbiyaviy ish olib borish. Ularning tayyorgarligi rivojlanishining navbatdagi ko'rsatkichi bu tayyorgarlikni talabalarning o'zlarini tomonidan baholanadi.

O'qishning turli usullaridan foydalangan holda, talabalarni institutda o'qitish va tarbiyaviy ishlarga tayyorliklarini ancha yuqori baholaydilar va ularning o'qitish faoliyatiga tayyorligi yuqori baholanadi.

Pedagogik malaka oshirish muassasalarida tinglovchilarini kasbiy malakalari oshirishga tayyorgarlik bir necha bosqichlardan o'tadi. Tayyorgarlikning quyidagi bosqichlari ajratiladi:

birinchi bosqich, ko'plab tinglovchilar egallab turgan kasbining xususiyatlari haqida yangiliklar, jahon tajribasi bilan tanishadi, shuning uchun ularning pedagogik yo'nalishi va kasbga doir amaliyotdagi holatlarni tahlil qilish uchun tizimli ish olib borish kerak;

ikkinchi bosqichda, tinglovchilar pedagogik kasbining mas'uliyati mohiyatini yanada chuqurroq anglaydilar va kasbiga bo'lgan qiziqishlarini, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish moyilligi va xohishini shaxsiy xarakterlarida namoyon etadilar;

Uchinchi bosqichda, tinglovchilar pedagogik ishlarga kasbiy qiziqishi bildiradilar. Buni, ayniqsa, pedagogik amaliyot jarayonida kuzatish mumkin. Bu bosqichda tinglovchilarning axborot-tadqiqot faoliyati o'ziga xos psixologik to'siqni o'z ichiga oladi, buning sababi o'z kasbiga nisbatan shaxsiy-kreativlikning, psixologik va maxsus bilimlarning yetishmasligi;

To'rtinchi bosqichda, tinglovchilarning kasbiy qiziqishi hamda shaxsiy-kreativ salohiyati nafaqat shakllanadi, balki ularda mustaqillik, yangi vaziyatlarda pedagogik

muammolarni yechishga ijodiy yondashish, o‘z harakatlarini baholash qobiliyati mavjud bo’ladi. Tayyorlikni rivojlantirishning bu bosqichida tinglovchilar pedagogik faoliyatga ehtiyoj sezadilar. Oliy ta’limda kadrlar malakasini oshirish muassasalarida holatni o‘rganish tinglovchilarning ijodiy yo‘nalishi masalasiga yetarlicha e’tibor berilmasligi haqidagi fikrlarni keltirib chiqaradi.

Bunday vaziyatda Malaka oshirish tizimi tinglovchilarining shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish uchun motivatsiya qanday shakllantirilishi va ta’lim muassasalarida pedagogik amaliyotlarni o‘tkazish jarayonida uning professional malakalarini shakllantirishning mezonlari, usullari va vositalari qanday bo‘lishi kerak? Bu muammo murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, shuning uchun ishda faqat bitta jihat ko‘rib chiqiladi – universitetda ta’lim va tarbiya jarayonida shaxs sifatida kasbiy malakanı shakllantirish yo’llarini ishlab chiqishdan iborat bo‘lib pedagog o‘z kasbining mohiyatini anglab yetadi. Natijada ish beruvchi tashkilot ham, ishlayotgan mutaxassis uchun ham manfaatli jarayon vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зубов В.П. Аристотель: Человек. Наука. Судьба наследия. 3-изд. - М.: УРСС, 2009. - 368 с.
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb-ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish T., Fan 2004.
3. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - Т.: «Fan va texnologiyalar», 2013. -128 b.